



O'SMIRLARNING INTELLEKTUAL VA IJODIY QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.

Pirmanova Gavhar Nazarkulovna

*Navoiy davlat pedagogika universiteti Pedagogika fanlari bo`yicha
falsafa doktori(PhD) dotsent*

Haydarova Nozigul Bahrom qizi

*Zarafshon shahar 2-sonli politexnikumi ingliz tili fani o`qituvchisi
Telefon: +998913332818*

haydarovanozigul452@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`smirlardagi intellektual va ijodiy qobiliyatni takomillashtirishning pedagogik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so`zlar. Tafakkur, intellektual, ijodiy, pedagogic, qobiliyat, tadqiqot, ta'lif, kognitiv, ilmiy, nazariy, iste'dod.

Bugungi kunda yurtimiz kelajagi, uning tarraqqiyot yo'lida ulg'ayib kelayotgan kelajak avlodning intellektual va ijodiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish mamlakatimiz yigit qizlarining XXI asr talablariga to`laqonli javob beradigan, har tomonlama barkamol shaxslar qilib voyaga yetkazish murakkab jarayondir. Ta'lif muassasidagi har bir o'quvchining o'quv jarayonini tashkil etishda o'z faoliyatini boshqara olish, duch keladigan muammo hamda qiyinchiliklarning sabablarini topish va ularni yechish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'quvchilarning mustaqil, erkin ta'lif olishga intilishi, mas'uliyati hamda o'quvchilardagi intellektual va ijodiy qobiliyatni takomillashtirishga erishiladi.

Hozirgi kunda ta'lif muassasidagi o'quvchilarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalasi ko'pgina fanlararo tadqiqotlar predmeti



sifatida ham foydalanilib kelinmoqda. Jumladan, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish va bunda psixolog tadqiqotchilarining kreativ tafakkur va ijodiy qobiliyatlarini metodologik masalalari bo‘yicha diqqatga sazavor tadqiqotlarni olib borgan O.K.Tixomirov, S.L.Rubinshteyn, L.L.Gurova, L.S.Vigotskiy, Ya.A.Ponomarev; tafakkurning kognitiv omillar bilan bog‘liqligi P.A.Bachelor, L.M.Vekker, M.S.Yegorova, N.V.Kalacheva, S.N.Orlovalarni tadqiqotlarini misol keltirish mumkin.

Ta’lim muassasasidagi o‘quvchilarni tafakkur, ijodkorlik, iste’dod va intellektual qobiliyatlar munosabatlari mazkur qobiliyatlarni takomillashtirishning psixologik xususiyatlari esa Dj.Gilford, Ye.Torrens, A.Maslou, T.Anderson, V.Andreyev, K. Platonov, V. Kruteskiy, Y.Ponomarev, A.Leontyev va N.Ilin kabi tadqiqotchilarining ishlarida atroflicha tahlil qilib o‘tilgan.

E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, N.S.Safayev, Sh.R.Baratov, A.M.Jabborov, Z.T.Nishanova, Sh.X.Abdullayeva, E.Z.Usmonova, A.I.Rasulov, D.A.Sobirova, R.N.Melibayeva, Z.A.Abduraxmonova kabi o‘zbek psixolog olimlari asarlarida esa ijodiy qobiliyat, iste’dod va tafakkurning krektiv, mazmundor sifatlari to‘g‘risidagi tadqiqotlar va ularning ilmiy natijalarini kuzatish mumkin.

Shaxs ijtimoiy muhitda uning hayoti va rivojlanishini ta’minlaydigan qobiliyatlarga ega. Bular nutq va mantiq, nazariy va amaliy, o‘quv va ijodiy, mavzu va shaxslararo munosabatlardan foydalanishga asoslangan umumiyligi va maxsus oliy intellektual qobiliyatlardir.

Qobiliyat-insonning individual salohiyati, imkoniyatlarida namoyon bo`ladi. Qobiliyat hamda bilim albatta bir-biridan farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat esa shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi.



Qobiliyat ko'nikma, malakadan ham farq qiladi. Qobiliyat shaxsga berilgan in'om sifatida talqin qilinadi. Bazi bir ilmiy manbalarda qobiliyatga alohida ta'rif beriladi. Qobiliyat shaxs tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday turdag'i qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u shaxs faoliyatining talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlarni tushunish kerak. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat bu - kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektdan u yoki bu belgilarni ko'ra bilish, farqlay olish ko'nikmasidir.

Qobiliyatning birlamchi xususiyatlaridan biri - narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qila olishdir. Qobiliyat shaxsning tarkib topishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan bir qatorda, tabiiy mezonlarga ham asoslanadi. Bu tabiiy mezon ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'lishi mumkin. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn belgilarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalg etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik belgilarini yuqori darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi bu - iste'dodda namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar, aslida, tug'ma bo'ladi. Qobiliyat tug'ma bo'lsada uning rivojlanib takomillashishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi

Intellektual va ijodiy qobiliyat moddiy va ma'naviy madaniyat ob'ektlarini yaratishni belgilaydi, yangi g'oyalar, kashfiyotlar va ixtiolar ishlab chiqarish, bir so'z bilan aytganda, inson faoliyatining turli sohalarida individual ijodkorligi.



Bogoyavlenskaya D.B. ijodkorlikni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlaydi :

- fikrning ravonligi (g'oyalar soni);
- fikrning moslashuvchanligi (bir fikrdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati);
- o'ziga xoslik (g'oyalar ishlab chiqarish qobiliyati);
- qiziquvchanlik;
- fantaziya

O'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda o'z-o'zini anglash yoki shaxs sifatida o'z "Men"ini shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu o'quvchida o'z xulqini tarkib toptiradigan, o'z-o'zini anglagan va anglamagan tasavvurlari tizimi hisoblanadi.

Xulosa

O'rnila shuni aytish joizki, o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish murakkab va muhim vazifa bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalgaloshirishga mifik va oila o'rtaсидаги yaqin hamkorlik yordam beradi. Bundan tashqari o'qituvchining o'zi bolalar ijodiyotining namoyon bo'lishiga e'tiborli bo'lishi lozim. Nafaqat pedagogik jihatdan balki psixolog sifatida o'qituvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini o'z vaqtida ko'rishi, ularni rag'batlantirishi va yana o'zini namoyon qilish imkoniyatini berishi orqali ulardagagi qobiliyatni yanada takomillashtirishga erishishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. G‘oziyev E.G‘. Usmonova Sh. Intellekt psixologiyasi. – T.: ToshDU, Universitet, 1996,
2. .V.Yo‘ldasheva, S .Usmonova, F Jumaboeva .Pedagogika texnologiya asoslari.O‘quv qo‘llanma.-T.2004.
3. Azarova L.N. Yosh o'quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak // Boshlang'ich maktab. - 2008.
4. Venger N.Yu. Ijodkorlikni rivojlantirish yo'li. -2001
5. .Endovitskaya T. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish haqida.